

## **ATOYINING “NETTI, NE BO‘LDI” RADIFLI G‘AZALINING LINGVOSTATISTIK TAHLILI**

*Mamarajabov Dilshod Doniyoroyich*

O‘zbekiston Respublikasi Navoiy viloyati

Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar

boshqarmasi boshlig‘i

**Annotatsiya :** mazkur maqolada Atoyining “Netti, ne bo‘ldi?” radifli g‘azali tarkibidagi so‘zlar lingvostatistik tahlilga tortilgan. Til birliklari Grammatik jihatdan so‘z turkumlariga ajratilib, o‘z va o‘zlashma qatlam nuqtayi nazaridan tahlilga tortilgan.

**Abstract :** In this article, the words in Atoyi's ghazal "Netti, ne boldi?" were subjected to linguistic statistical analysis. The language units were grammatically divided into word groups and analyzed from the point of view of their own and assimilation layers.

**Аннотация :** Эта статья о песне Атойи «Нетти, что случилось?» Слова в газели «Радифли» были подвергнуты лингвистическому статистическому анализу. Языковые единицы грамматически делятся на группы слов и анализируются с точки зрения их собственного и приобретенного слоев.

**Kalit so‘zlar :** badiiy matn, lingvostatistika, grammatika, o‘z qatlam, o‘zlashma qatlam, leksika, til , nutq

**Keywords :** literary text, linguostatistics, grammar, own layer, assimilation layer, lexicon, language, speech

**Ключевые слова:** литературный текст, лингвостатистика, грамматика, собственный слой, ассимиляционный слой, лексика, язык, речь

Istalgan bir matnning tarkibi lingvostatistik tahlil qilinganda, til birliklarining morfologik nuqtayi nazaridan tuzilishiga ko‘ra turlari asos qilib olinadi. Shunga asoslangan holda mazkur g‘azal tarkibidagi birliklar sodda , qo‘shma, juft va takror so‘z shaklida olindi.

“So‘nggi yillarda statistika turli sohalar kabi lingvistikada ham keng qo‘llanmoqda va mazkur usul lingvostatistika nomini oldi. Tilshunoslikda statistik usulni qo‘llash shunchaki maqsad emas, balki tilning nihoyatda murakkab tuzilishi uning amal qilish sirlarini bilishda an‘anaviy usul bilan birgalikda qo‘llanadigan vositadir”. Tilshunos olim S.Rizayev “...hozirgi dunyo tilshunosligida til hodisalarini aniqlashda uch bosqich mavjudligi haqida aytib o‘tadi: 1) statistik kuzatish yo hisoblash: bunda tekshirilayotgan hodisa haqida aniq ma‘lumotlar olish uchun dalillar

qayd etiladi; 2) raqamlar bilan berilgan ma'lumotlarning jamlangan natijasi: bunda ma'lumotlar ma'lum bir tizimga solinadi, guruhlashtiriladi, ma'lum bir tartibda joylashtiriladi; 3) tahlil qilish: bunda ikkinchi bosqichdagi natijalarning asosiy mazmuni oydinlashadi, ya'ni miqdoriy tavsifi beriladi".

"Tilshunoslikda statistik usul shunchaki qo'llanmaydi, ma'lumotlarning asosli va ishonchli bo'lishini ta'minlaydi". Bunday statistik tahlil usulida juda ko'plab ilmiy ishlar amalga oshirilgan, jumladan, Alisher Navoiy asarlari leksikasida 26035 ta, "Devoni Munis"da 5500 atrofida, Zahiriddin Muhammad Bobur qalamiga mansub "Mubayyin" asarida 2616 ta, "Aruz"da 2230 ta, "Devon"ida 3304 ta leksik birliklarning qo'llanilganligi, "Boburnoma"ning lug'at tarkibi 27970 ta leksik birlikdan iborat ekanligi, "Qissasi Rabg'uziy"da 5111 ta, "Qutadg'u bilig" tarkibida 3370 ta, Alisher Navoiy asarlarida 1400 ga yaqin qadimgi turkiy va eski turkiy tilga doir so'zlarning ishtirok etganligi, "Mehrobdan chayon" romanida foydalanilgan so'zlar soni tashkil etishi soha mutaxassislari tomonidan o'rganilgan, tadqiqotlar olib borilgan.

Atoyining "Netti, ne bo'ldi" radifli g'azali tarkibida 69 ta birlik qo'llangan. Ularni so'z turkumlari nuqtayi nazaridan quyidagicha guruhlab chiqish mumkin:

1)ot turkumiga mansub birliklar: oraz, shams-u qamar, tish, durr-u guhar, ko'ngil, mahram, jon-u jigar, kishi, diyda, javr, noz, lo'bat, Farhod, olam, so'z, lab, shahd-u shakar, Atoyi; har bir birlik alohida olinganda 22 ta alohida so'z borligi oydinlashadi. Sodda so'zlar miqdori 14 ta, barcha sodda otlar tub sanaladi, qo'shma otlar mavjud emas, 4 ta juft ot qo'llangan, Atoyi so'zi tarkibidagi –yi birligi hozirgi o'zbek tilida ma'lum bir shaxs otini hosil qiluvchi birlik sifatida qayd etilgan emas. Mavjud 22 ta alohida birlik sifatida qo'llaniluvchi otlarning juda oz qismini turkiy so'zlar tashkil qiladi. Bundan ko'rinadiki, Atoyi yashagan davrda arabiy, forsiy kalimalarning tilimizda faol qo'llanilganligi kuzatiladi.

2)sifat so'z turkumiga oid so'zlar: o'zga, shirin, mengizlik, suchuk; sifat turkumiga oid birliklarning barchasi turkiy tillarga mansubligi kuzatiladi;

3)son turkumiga mansub birliklar: bir zarra; son turkumiga oid birliklarning ham turkiy tillarga mansubligi kuzatiladi;

4)olmosh turkumiga oid birliklar: netmoq, ne bo'lmoq, san, men, sen; olmosh turkumiga mansub birliklarning ham barchasi turkiy tillarga mansub sanaladi;

5)fe'l turkumiga mansub birliklar: kuymoq, pand bermoq, chiqmoq, guzar(aslida o'tmoq, bu yerda kechmoq ma'nosida kelgan), o'ltur, yoyilmoq, ayamoq; mustaqil ma'no ifodalamaydigan birlik sifatida ekan to'liqsiz fe'li ham ishtirok etgan; fe'l turkumiga oid birliklarning tarkibi tahlil qilinganda, ularning sodda va qo'shma fe'llar ekanligi kuzatildi, qo'shma fe'llar tarkibidagi birliklarning qismlari turkiy va o'zlashma birliklar ekanligi aniqlandi;

6) yordamchi birliklar:

a) bog'lovchilar: shams-u qamar, durr-u guhar, jon-u jigar, shahd-u shakar kabi juft birliklar tarkibidagi –u yuklamasi va biriktiruv bog'lovchisi vazifasida qo'llangan; gah... gah ayiruv bog'lovchisi, gar shart ergashtiruvchi bog'lovchisi;

b) ko'makchi: ila;

7) undov so'zlar: ey, ve, e.

Mazkur lingvostatsitik tahlil natijasi shuni ko'rsatadiki, Atoyining "Netti, ne bo'ldi?" radifli g'azali tarkibida ot va fe' turkumiga oid birliklarning qo'llanilish foizi ancha yuqori. Arabiy, forsiy kalimalar yorni ta'rif-tavsiflash holatlarida juda ko'p qo'llangan. Olmosh turkumiga doir birliklarning oz bo'lsa-da, takroriy qo'llanilishlar hisobiga yuqori foizni tashkil etadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Сайфиддин Сайфуллох. Девони шайхзода Атойи. –Т.: Фан, 2008. – 320б.
2. Ибрагимов А. Бобур асарлари лексикасининг лингвостатистик, семантик ва генетик тадқиқи ("Девон", "Мубаййин", "Аруз"). Филол. фан. докт.... дисс. –Тошкент, 2008. –Б. 13.
3. Бафоев Б. Навоий асарлари лексикаси. –Тошкент: Фан, 1983.–Б. 19. Абдулхайров М. "Девони Мунис" тилининг лексик қатламлари. – Тошкент, 1996. –Б. 23.
4. Абдушукуров Б. "Қисаси Рабғузий" лексикаси. – Тошкент: Академия, 2017. –Б. 16.
5. Холмуродова М. "Qutadg'u bilig" leksikasi. – Toshkent: Nodirabegim, 2020. – Б. 15.
6. Эгамова Ш. Алишер Навоий асарлари тилидаги қадимги туркий лексика тадқиқи. – Тошкент: Фан, 2008. –Б. 25.